

PEDAGOGIKA ILIMLERI

Pedagogika teoriyası hám tariyxı

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISHDA ERTAKLARNING AHAMIYATI

P.I.Abdaliev – *katta o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: ertak, nutq, xalq og'zaki ijodi, shaxsiy kamolot, falsafa.

Ключевые слова: сказка, речь, фольклор, личная выдумка, философия.

Key words: fairy tale, speech, folklore, personal fiction, philosophy.

Kirish. Bolaning nutqi – uning fikrlash qobiliyati, ijtimoiy munosabatlari va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda o'quvchilarning nutqini shakllantirish va boyitish bo'yicha maqsadli ish olib borish bolaning umumiy rivojiga xizmat qiladi. Bu borada xalq og'zaki ijodi-ayniqsa, ertaklar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon bolaning shaxsiy kamolati, tafakkuri, ijtimoiy munosabatlarga bevosita ta'sir etadi. Ertaklar esa bolalar nutqini shakllantirish va boyitishda samarali vosita hisoblanadi. Ularning mazmundorligi, obrazlar yorqinligi va tarbiyaviy ahamiyati bolalarni faol fikrlashga, so'z boyligini oshirishga undaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiiy qiziquvchan va taassurotlarga boy bo'ladi. Shu bois, ular uchun dars jarayonini qiziqarli va tasirchan usulda tashkil etish juda muhim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bolalar ma'naviy va axloqiy tarbiyasi har qanday jamiyatning istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida shaxsning shakllanish jarayonida ertaklar muhim o'rin tutadi. Ertaklar orqali bolalarning qalbiga yaxshilik, rostgo'ylik, mehr-shavqat, jasorat va vatanparvarlik kabi fazilatlar singdiriladi. Shu bois, ertaklar nafaqat badiiy asar sifatida, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham alohida o'rganilishi lozim.

Ertaklar orqali ta'lim berish bolalarda nutqiy faollikni rivojlantiradi. Ertakni tinglagan bola, u haqda fikr bildirishga, obrazlarni ta'riflashga, voqealar zanjirini qayta so'zlab berishga intiladi. Bu esa nutqiy faollikni oshiradi. Bundan tashqari so'z boyligini oshirishda ertaklar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tilida kam uchraydigan so'zlarni o'z ichiga oladi, bu bolalarning lug'aviy xazinasini boyitishda yordam beradi. Ertak qahramonlari orqali bolalar to'g'ri nutq madaniyatini o'rganadilar. Masalan, odob-axloq, samiyimiylik, rostgo'ylik kabi fazilatlar nutqda aks etadi. Sinfda o'quvchilar ertak qahramonlari obrazlarini yaratish orqali dramalashtirish va rol o'ynash ertak asosida sahna ko'rinishlarini tayyorlash bolalarning ijodiy fikrlashini, nutqiy ifoda va hissiyotlarni to'g'ri bayon etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ertaklar haqida ilmiy tahlillarga nazar soladigan bo'lsak, rus folklorshunosi V.A.Propp «Морфология сказки» nomli asarida ertaklarning tuzilishini, obrazlarini va funksiyalarini tahlil qilgan [1]. Uning nazariyasi hozirgi folklorshunoslikda ham asosiy uslub sifatida qullaniladi.

M.Juraev va Z.Rasulovlar «Mif, marosim va ertak» asarida bolalar ertaklarining tarbiyaviy va psixologik ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borib, unda bolalar ruhiyati va ijodiy tafakkuriga ertaklarning ta'sirini ilmiy ravishda o'rgangan [2].

Shuningdek, qoraqalpoq xalq ertaklari bo'yicha qoraqalpoq folklorining 1 tomi qoraqalpoq xalq ertaklariga bag'ishlangan [3]. Bunda ertaklarni janriy xususiyatlariga qarab bir nechta turlarga ajratgan.

Muhokama va natijalar. Boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh xususiyatlari va aqliy imkoniyatlari darajasiga qarab ertaklarni oqitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi: undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, undagi ezgu kuchning-yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilning ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun qiziqarlidir. Ertak matni bog'lanishli nutqni o'stirish ushuncha zarur material beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ertakni juda qiziqib, obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, shuningdek, ertakning o'ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini saqlagan holda jonli aytib beradi.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. Anvar Obidjonning «Bo'ringning tabii bo'lganligi haqidagi ertak», «Ko'zacha bilan Tulki», «Olapar, Mosh, Musicha» kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Matn bilan ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari savol tuzib, javob berishlari, so'z bilan grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalash, ertak aytish kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bu ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar harakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi. Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-biriga mehmonga bormasligini yaxshi biladi, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib, tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Ertak ustida ishlashning oxirgi bosqichida «Ertakda sizga yoqqan joyini o'qing, nima uchun yoqqanini ayting. Hayotingizda mana shu ertakdagiga o'xshash voqealar bo'lganmi?» kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishiga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, «Davlat», «Tuz haqi», «Ovchi, Kokcha va Dono», «Ilm afzali» kabi ertaklarni o'qiydi. O'quvchilarni bunday ertaklarni o'qishga tayyorlash ilmiy-ammobop tekstlarni o'qishga tayyorlash kabi bo'ladi(kuzatish, ekskurciya, fan darslari), ertakni o'qish va

tahlil qilish badiy hikoya tarzda uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning birbirlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar ham shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertak qismlarini rollarga bo'lib oqiydilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqini o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi. 1-sinfdan o'qituvchi ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, ertakni izohli o'qish darsining qurilishi quyidagicha bolishi mumkin:

1. O'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash.
2. O'qituvchining ertakni ifodali oqishi, yod aytib berishi.

3. Ertakni oquvchilar qanchalik idrok etkanliklarini aniqlash maqsadida qisqa suhbat o'tkazish.

4. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish, undan ayrim tasviriy vositalar, sinonim so'zlarni topish, ayrim so'zlarning manosini tushuntirish.

5. Ertakni aytib berishga tayyorlanish.

6. Ertakni aytish.

7. Umumlashiruvchi suhbat (ertak g'oyasini oshish).

8. Vazifani tekshirish va yakunlash (Nima uchun ertakni qiziqib o'qidik?).

Psixologlarning fikricha, 6-10 yoshdagi bolalarda obrazli tafakkur va fantaziya kuchli bo'ladi. Ertaklar aynan shu qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birga ularda so'z boyligini oshiradi, mulohaza yuritishni o'rgatadi, ma'naviy ideallarni anglash va mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rgatishda o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda qanday ta'sir qiladigan bir qancha omillarga to'xtab o'tamiz.

1. Lug'at boyligini oshiradi. Ertaklarda ko'p uchraydigan so'z va iboralar bolalar uchun yangi lug'at zaxirasini yaratadi. Masalan, «Zumrad va Qimmat» ertagidagi «qismat», «mehr», «rashk» kabi so'zlar bolalarda tushuncha hosil qiladi.

2. Ifodali gapirish ko'nikmasini shakllantiradi. Ertak qahramonlarining so'zlashuvi, taassuf, xursandchilik kabi holatlarni ifoda etishi bolalarda turli intonatsiya va his-tuygular bilan gapirish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Mustaqil nutqini rivojlantiradi. Ertakni qayta so'zlab berish yoki unga yangi voqealar yasash kabi mashqlar bolalarning erkin fikrlash va gapirishini rag'batlantiradi. Dars jarayonida o'qituvchi ertakni ifodali tarzda o'qib

bergandan so'ng, bolalar uni qayta so'zlab beradi. Masalan, «Qizil qalpoqcha» ertagi orqali har bir bola qahramonlarning so'zlarini eslab, ularning rolini bajaradi.

4. Rolli o'yinlar. Ertak asosida sahna ko'rinishi tayyorlash nutq va harakatini uyg'unlashtirishga yordam beradi. Masalan, «Bug'ular va bo'ri» ertagida bolalar qahramonlar rolini ijro etadi.

5. Yangi yakun (fantaziyani rivojlantirish) bolalarga ertakning bosh qismini o'qib berib, yakun esa o'zlaricha davom ettirishni so'rash mumkin. Bu nutqiy mustaqillik va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

6. Savol-javob orqali muloqot. Ertakdan so'ng «Qahramon to'g'ri ish qildi-mi?», «Sen qanday qilgan bo'larding?» kabi savollar nutqiy faollikni kuchayttiradi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning nutq qobiliyatini o'stirishda ertaklarning o'rni katta. Masalan 1-sinfda «Sichqoncha va sher» ertagi o'qilib, «Sichqoncha nima uchun qo'rqqan» yoki «Agar sen sher o'rnida bo'lsang, nima qilgan bo'larding?» kabi savollar orqali muloqot uyushtiriladi. 2-sinfda «Tilla tovuqcha» ertagida bolalar sevimli qahramoni haqida so'zlab beradi va tugashini o'zlari yaratadi. 3-sinfda «Zumrad va Qimmat» ertagi asosida bolalar guruhlariga bo'linib, har bir guruh qahramonlarning hislatlarini tavsiflab, nutqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Xulosa va takliflar. Ertaklar nafaqat bolaning ma'naviy tarbiyasi, balki uning nutqiy rivoji uchun ham samarali vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda ertaklar asosida olib borilgan mashg'ulotlar bolalarda ijodiy fikrlash, mustahkam lug'at zahirasi, ifodali va erkin gapirish ko'nikmasini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ertaklar orqali bolalar nutqini rivojlantirish uchun quyidagi uslublarni amaliy tavsifiya sifatida berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Ertakni tinglab bo'lgandan keyin bolalarga uni qisqacha qayta so'zlab berish topshiriladi.

2. Qahramonlarning xulq-atvori haqida fikr bildirishga undaydigan savollar beriladi.

3. Ertakni davom ettirish yoki yangicha tugatish kabi ijodiy mashqlar o'tkaziladi.

4. Guruh bo'lib dramalashtirish orqali nutqiy ifodaning rivojiga erishiladi.

Ertaklar bola ongiga ma'naviy qadriyatlarni singdirish bilan birga, uning nutqiy salohiyatini ham rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda ertaklardan samarali foydalanish orqali o'quvchining faol nutqi, tafakkuri va ijodiy qobiliyatini shakllantirish mumkin. Shuning uchun ertaklar orqali ta'lim berish metodikasini doimiy ravishda takomillashtirish va qo'llash tavsifiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Пропп В.А. Морфология сказки. – Ленинград: «Академия», 1928.
2. Juraev M., Rasulov Z. Mif, marosim va ertak. – Toshkent: 2014.
3. Qaraqalpaq folklori. Qaraqalpaq xalq ertekleri. T. 1. – Nókis: «Qaraqalpaqstan», 1977.
4. Abdullaeva K. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. – Toshkent: «O'qituvchi», 2011.
5. Shojalilov A. va boshqalar. O'qish kitobi. – Toshkent: «O'qituvchi», 2011.
6. Umarova M. 3-sinfda O'qish darslari. – Toshkent: «Ijod dunyosi», 2012.

REZYUME. Maqolada boshlang'ich sinflarda bolalar nutqini o'stirishda ertaklardan foydalanish usullari va boshlang'ich sinf o'qituvchilariga amaliy tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье приводятся методы использования сказок в воспитании речи детей в начальных классах и практические рекомендации для учителей начальных классов.

SUMMARY. The article presents methods of using fairy tales in the education of children's speech in primary schools and practical recommendations for primary school teachers.